SUN’IY INTELLEKT KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA RAQOBATBARDOSHLIK OMILI SIFATIDA

Xazratkulov Zamir Toirovich

Zarmed universiteti
e-mail: zamiriyvip@mail.ru

KEYWORDS

sun’iy intellekt (SI), raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik, avtomatlash-tirish, raqobatbardoshlik, SI texnologiyalari, maqsadli auditoriya, chatbot, reklama kontenti, ma’lumotlarni tahlil qilish, xarajatlarni kamaytirish, jarayonlarni optimallashtirish, prognoz-lash, mijozlar bilan ishlash, SI xavflari va muammolar.

ABSTRACT

Sun’iy intellekt tadbirkorlar uchun mijozlarga xizmat ko‘rsatishdan tortib, ma’lumotlarni tahlil qilish va kontent yaratishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli muammolarni hal qilishga, tezroq va samaraliroq ishlashga yordam beradigan kuchli vositadir. Ba’zi kompaniyalar mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati va tezligini oshiradigan vositalarni joriy qilmoqdalar. Boshqalar esa katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish yoki oddiy vazifalarni avtomatlashtirish uchun sun’iy intellektdan foydalanadilar. Ushbu maqolada biz sun’iy intellekt tadbirkorlarga biznes jarayonlarini optimallashtirish va yuqori samaradorlikka erishish hamda raqobatbardoshlikni oshiruvchi muhim omil sifatida ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son qaroriga muvofiq, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari asosidagi innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko‘rsatish usullari rivojlanishi uchun qulay va maqbul ekotizim yaratish, ularni belgilab berilgan ustuvor tarmoqlar va sohalarda tezkorlik bilan joriy etish va amaliyotga tatbiq etish vazifalari belgilab berilgan edi.

Hozirgi kunda sun’iy intellekt mavzusi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda va yangi yo‘nalishlarini ochishda yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarini kichik biznes faoliyatiga joriy etish, ularning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq, muvaffaqiyatli natija uchun davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash (grant, kredit), mutaxassislar tayyorlash va qayta o‘qitish dasturlari, qonunchilikni takomillashtirish hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur. Aks holda, sun’iy intellektni joriy etilishi kutilgan ijobiy natijani bermasligi, balki moliyaviy va ijtimoiy xavflarni kuchaytirishi mumkin.

Joriy yilning 3-aprel kuni “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitining ishbilarmonlik dasturi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Renaud-Basso bilan uchrashuvida O‘zbekiston va xalqaro moliya instituti o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish jihatlari muhokama qilindi. Shuningdek, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga yashil iqtisodiyot va sun’iy intellekt bozorini rivojlantirish bo‘yicha dastur va loyihalarning kiritilganligi bu sohaning mamlaktimiz iqtisodiyotida qanchalik muhimligini belgilab berdi.

Sun’iy intellekt salohiyatidan unumli va oqilona foydalanish orqali biznes jarayonlarini yanada yengillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va innovatsion mahsulotlar (xizmatlar) yaratish imkoniyatlarini oshiradi. O‘z o‘rnida raqamli texnologiyalarni keng ko‘lamda qo‘llash milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

So‘ngi yillarda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, ta’lim, san’at, transport, mudofaa va xavfsizlik kabi ko‘plab boshqa sohalarda ham sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanib kelmoqda.

(cc) BY © *Xazratkulov Zamir Toirovich*

Global sun’iy intellekt (SI) bozorining hajmi 2025 yilda 757,58 milliard AQSh dollarini tashkil etadi va 2034 yilga kelib 3,680,47 milliard dollarni tashkil etadi va 2025 yildan 2034 yilgacha yillik o‘sish sur’ati 19,20 foizga tezlashadi.[1]

PitchBook tadqiqotlariga ko’ra 2024 yil oxiriga kelib, global miqyosda sun’iy intellektga (GenAI) investitsiyalar 56 milliard AQSh dollarga yetdi, bu yangi rekorddir. Bu o‘tgan yilga nisbatan qariyb ikki baravar ko‘p – 92 foizni tashkil etdi, o‘shanda ushbu sohadagi startaplarga 29,1 milliard AQSh dollar sarmoya kiritilgan. Bunday ma’lumotlar PitchBook tadqiqotida keltirilgan.[2]

Har yili sun’iy intellekt texnologiyalari jadal rivojlanib, nafaqat yirik korporatsiyalar, balki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida ham qo‘llanilmoqda. Dunyo miqyosida 2024–2025 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining 50–60% gacha bo‘lgan qismi sun’iy intellekt texnologiyalarining kamida bir funksiyada foydalanganligi qayd etilgan. O‘zbekiston kichik biznes sektorida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi asosan savdo va elektron tijorat, qishloq xo‘jaligi, turizm va bank sohasida mijozlarga tezkor xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari biznesning turli sohalariga tobora ko‘proq kirib bormoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarini o’z faoliyatida joriy etgan va etmagan kichik biznes sub’yektlarining tahliliy ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

№	Asosiy ko‘rsatkichlar	SI joriy etilgan	SI joriy etilmagan
1	O‘rtacha yillik daromad o‘sishi (%)	34%	7%
2	Raqobatbardoshlik indeksi (1–10)	8.2	5.1
3	Mijozlar bazasining o‘sish sur’ati	22%	10%
4	Ishlab chiqarish samaradorligini o‘sishi	35%	12%
5	Yillik texnologiyaga ajratilgan investitsiya	$12,000	$4,500


Manba: McKinsey & Company**,** "The State of AI in Early 2024: Gen AI Adoption Spikes and Starts to Generate Value", McKinsey Report.

Yirik korxonalar sun’iy intellektdan kichik biznesga qaraganda ikki baravar ko‘proq foydalanishadi. Ajablanarlisi shundaki, yirik kompaniyalar sun’iy intellektni, ayniqsa generativ sun’iy intellekni joriy qilish va kengaytirishda yetakchilik qilishmoqda. Ular kichik biznesga qaraganda ikki baravar ko‘proq aniq rejalar, jumladan bosqichma-bosqich amalga oshirish va ishlab chiqarishni boshqarish uchun maxsus jamoalarga ega. Yirik korxonalar ham kompaniya ichida sun’iy intellektni joriy qilishni qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘proq choralar ko‘rmoqda. Ular ixtisoslashtirilgan treninglarga sarmoya kiritmoqdalar, jadallikni oshirish uchun ichki kampaniyalarni o‘tkazmoqdalar va Generativ sun’iy intellekdan foydalanishda mijozlar ishonchini oshirishga e’tibor qaratmoqdalar. Aksincha, ko‘pchilik kichik biznes korxonalri hali ham boshlang‘ich bosqichda qolmoqda va o‘z faoliyatini boshqarish yoki kengaytirish uchun kamroq amaliyotga ega hisoblanadi.

[1] https://www.globenewswire.com/news-release/2025/04/10/3059463/0/en/Generative-AI-Market-Size-Expected-to-Reach-USD-1-005-07-Bn-By-2034.html

[2] https://pitchbook.com/news/reports/2024-artificial-intelligence-machine-learning-overview

(cc) BY © Xazratkulov Zamir Toirovich



Grafik 1. Korxonalarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tendensiyalari. 2025 y.

Sun’iy intellekt (SI) asosidagi texnologiyalar va ularning raqobatbardoshlikka ta’siri alohida ahamaiyatga ega bo‘lib, tadbirkorlik subyektlarining raqobatchilardan oldinroq ehtiyojni aniqlash, individual takliflar berish, marketing strategiyasini maqsadli auditoriyaga moslashtirish, reklama samaradorligini oshirish, mijozlar sodiqligini oshirish, samarali marketing va savdo jarayonlari hamda Brend ishonchliligini oshirish imkoniyatlarini beradi.

Sun’iy intellektni biznesda qo‘llashning eng ommabop yo‘nalishlari va ularning raqobatbardolikka ta’sirini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanish sohasi	Statistika	Raqobatbardoshlikka ta’siri
Mijozlar bilan aloqani avtomatlashtirish	Korxonalarning 80% mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash uchun chatbotlardan foydalanadi	24/7 aloqa va qo ‘llab-quvvatlash, sodiqlikning oshishi
	Kompaniyalarning 50% dan ortig’i SIni avtomatlashtirish mijozlarga javob berish vaqtini 20-40% ga qisqartirishga yordam beradi	Xodimlar bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish, umumiy samaradorlikni oshirish
Biznes jarayonlarini optimallashtirish	SIni biznes jarayonlariga joriy qilish samaradorlikni 20-30 %ga oshiradi	Kun tartibini avtomatlashtirish (uchrashuvlarni rejalashtirish)
	Tadbirkorlarning 72 %i sun’iy intellekt tavakkalchiliklarni boshqarishni yaxshilashi va rentabellikni oshirishi mumkinligiga ishonishadi	Qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash (hisobotlarni yaratish, ma’lumotlarni tahlil qilish)
Marketing va kontent yaratish	Sotuvchilarning 66% SI yordamida kontentni avtomatlashtirish jarayonni 30-40% ga tezlashtiradi	Reklama jarayonlarini tezlashtirish
	Tadbirkorlarning 50%i reklama kontentlarini yaratishda SIdan	Kontentni maqsadli auditoriyaga moslashtirish

© Xazratkulov Zamir Toirovich

	foydalanish kontent sifati va dolzarbligini oshirishga yordam berganini tasdiqlashdi	
Ma’lumotlarni tahlil qilish va biznes strategiyalarini takomillashtirish	Kompaniyalarning 60 %i uni joriy qilinganidan keyin dastlabki 6 oy ichida foyda 10-15% ga oshgan	Prognozlash (bozor tendensiyalarini tahlil qilishi va kelajakdagi o‘zgarishlarni taxmin qilish)
	Tadbirkorlarning 48%iga ma’lumotlar tahlilini tezlashtirish va prognozlash sifatini yaxshilashga yordam bergan	Katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash (uzoq muddatli rejalashtirish)

Sun’iy intellekt texnologiyalarini kichik biznesning ish jarayonlariga joriy etish orqali afzalliklarga ega bo‘lsa-da, uni amalga oshirish ham ba’zi xavf va katta sarf-xarajatlar bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Buni joriy etishdagi potentsial xavflar bo‘lib, ularni 5 guruhga ajratish mumkin:

1. Moliyaviy va iqtisodiy xavflar.

- Yuqori boshlang‘ich xarajatlar (SI dasturlari, serverlar, litsenziyalar).
- ROI (qaytish) noaniqligi – investitsiya qanchalik tez foyda keltirishi noma’lum.
- Kichik bizneslarda mablag‘ yetishmasligi sababli loyiha yarim yo‘lda to‘xtab qolishi.

2. Texnik va operatsion xavflar.

- Ma’lumotlar sifati past bo‘lsa, SI noto‘g‘ri qaror chiqarishi.
- Integratsiya qiyinchiliklari – mavjud IT tizimlariga ulash mushkulligi.
- Texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanib qolish (“vendor lock-in”).

3. Huquqiy va me’yoriy xavflar.

- Ma’lumot maxfiyligini buzish (mijoz ma’lumotlari oshkor bo‘lishi).
- Mualliflik huquqlari (SI yaratgan kontent kimga tegishli?).
- Milliy va xalqaro tartib-qoidalar bilan mos kelmasligi (compliance risk).

4. Ijtimoiy va kadrlar bilan bog‘liq xavflar.


- Xodimlar o‘rinlarining qisqarishi yoki kasbiy moslashuv qiyinchiliklari.
- Xodimlarda AI’dan foydalanishga qarshilik (psixologik va madaniy to‘siqlar).
- Malakali SI mutaxassislari tanqisligi va yuqori ish haqi.

5. Etik va obro‘ xavflari.

- Algoritmik xolislik (bias) – noto‘g‘ri yoki adolatsiz qarorlar.
- SI xatosi yoki shaffoflik yetishmasligi sababli mijoz ishonchini yo‘qotish.
- Brend obro‘siga zarar – noto‘g‘ri SI qarorlari ijtimoiy tarmoqlarda salbiy aks-sado berishi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkini, Sun’iy intellekt - bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga biznes jarayonlarni avtomatlashtirish, mijozlar bilan muloqotni yaxshilash, kontent yaratish va ma’lumotlarni tahlil qilishda yordam beradigan kuchli vosita ekanligini ma’lum bo‘di. Sun’iy intellektni qo‘llashning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu katta ma’lumotlarni tahlil qilish va undan biznes strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanishdir. Sun’iy intellekt turli xil ma’lumotlar manbalari bilan ishlashi, hisobotlarni yaratishi va tadbirkorlarga ko‘proq asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradigan xulosalar chiqarishi mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, tadbirkolar raqobatchilarining ma’lumotlari asosida SWOT tahlilarini ko‘rgazmali namoyishlar holida tayyorlab olish imkonini beradi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari global miqyosda deyarli barcha sohalarda inqilobiy o‘zgarishlar olib keldi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari uchun SI — bu nafaqat avtomatlashtirish vositasi, balki raqobatbardoshlikni oshiruvchi muhim strategik omilga aylandi.

(cc) BY © Xazratkulov Zamir Toirovich



Grafik 2. O‘zbekiston kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida sun’iy intellektni joriy etishdagi xavflar taqsimoti.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini uzoq muddatli strategik rejalashtirishda sun’iy intellektni joriy etish samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, yangi mijozlarni jalb qilish va raqobatda ustunlik uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Biroq, sun’iy intellekt texnologiyalarini tadbirkorlikka joriy etish bir qator afzalliklarga ega bo‘lsa-da, uni amalga oshirish ham potentsial xavf va katta sarf-xarajatlarni talab qiladi.

Mamlakatimizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari uchun sun’iy intellekt texnologiyalari – bu ikki tomonlama qurol: to‘g‘ri yondashilsa rivojlanishga turtki beradi, lekin reja va risk boshqaruvisiz jiddiy moliyaviy va obro‘siga zararlar olib kelishi mumkin. Sun’iy intellektga bevosita xavfga asoslangan holda yondashish va uning salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun undan oqilona foydalanish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2023). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
4. Бобоев А. Ч., Рахматов Ш. А. Эволюция теоретических взглядов о предпринимательской деятельности //Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире. – 2016. – №. 13-2. – С. 94-98.
5. Rakhmatov S. A., Nizamov A. B. Principal components of implementation of “university-3.0” transformation in the development of innovative-entrepreneurial activities of modern higher educational institutions //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2020. – Т. 1691. – №. 1. – С. 012231.
6. McKinsey & Company. "The State of AI in Business 2025." – исследование по применению ИИ в разных отраслях.
7. Jouini, M., & Feki, A. "Artificial Intelligence and Customer Support: The Role of Chatbots in Customer Service."
8. Gartner (2023). "Gartner Hype Cycle for Artificial Intelligence." – исследование, которое показывает влияние ИИ на бизнес и клиентов.
9. “Artificial intelligence: Changing landscape for SMEs”, in The Digital Transformation of SMEs, 2021, OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/01a4ae9d-en
10. OpenAI (2020), AI and Efficiency, https://openai.com/blog/ai-and-efficiency/ (accessed on 11 May 2020).
11. World Economic Forum (2025). Future of Jobs Report.
12. https://infocom.uz/ru/articles/2024-yilgi-nazarga-tushgan-ai-statistikasi
13. https://pitchbook.com/news/reports/2024-artificial-intelligence-machine-learning-overview
14. https://www.precedenceresearch.com/artificial-intelligence-market
15. https://www.hostinger.com/tutorials/how-many-companies-use-ai
16. https://www.mckinsey.com/~/media/mckinsey/business%20functions/quantumblack/our%20insights/the%20state%20of%20ai/2025/the-state-of-ai-how-organizations-are-rewiring-to-capture-value_final.pdf

(cc) BY © Xazratkulov Zamir Toirovich